

Woruz

Boshlang'ich ta'lim



6- son
2016- yil
iyun

**GO'ZAL VA BETAKRORIMSAN, MUQADDAS VATANIM,
JONIM SENGAFIDO, O'ZBEKISTONIM!**

**O'quvchingiz qaysi fan
to'garagini
tanladi?**

10- bet

**«To'rt taraf»
metodi**

14- bet

**Kundalik daftar
o'quvchining yuzi**

18- bet

**Материальное
стимулирование:
каким образом
получить надбавку
к зарплате?**

24 cnp.

**The golden
watermelon**

30- bet

**SHAXS TA'LIM-TARBIYASI
MUALLIMNING MUQADDAS
BURCHIDIR**



Burxon RIZOULLOV o'lgan surat.

Jurnalning 3- betiga qarang.

*Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.*
Alisher NAVOIY

6- son/2016- yil/iyun
Jurnal 1992- yil yanvardan chiqra boshlagan

**Ilmiy-metodik,
axloqiy-ta'limiy,
ommabop jurnal**

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Halim SAIDOV

Tahrir hay'ati
Baxtiyor DONIYOROV
Jo'ra YO'LDOSHEV
Islom ZOKIROV
Tal'at G'AFFOROVA
Dilfuza TOSHMUHAMEDOVA
Nafisa SAFAROVA
Gulmira KAMILOVA
(bosh muharrir o'rinbosari)
Shahnoza ALIYEVA
(mas'ul kotib)

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Matbuot va axborot agentligida
№ 0056- raqam bilan 2006- yil
22- dekabrda ro'yxatga olingan.

Manzilibiz: 100000, Toshkent,
Matbuotchilar ko'chasi, 32- uy.
Telefonlar: (0-371) 236-74-23,
(0-371) 232-02-90.

Fax: (0-371) 233-72-28

Veb-sayt: www.bt-jurnal.uz

E-mail: talim-uz@xtv.uz

Jurnal maketi tahririyatning matbaa
bo'limida tayyorlandi.

Dizayner - B. Jontemirov.
Sahifalovchi - M. Fayziyeva.

Nashr uchun mas'ul:
D. Ro'ziqulov.

Bosishga 2016- yil 21.06. kuni
ruxsat etildi. Ofset usulida chop
etildi. Qog'oz bichimi
60x84 1/8. Qog'oz hajmi shartli
4 bosma taboq. Nashriyot
hisobida 4,65 bosma taboq.
Tiraji: 19381. 672- buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Tahririyat nuqtayi nazariga mos
kelmagan maqolalar tahlil etilmaydi
va egalariga qaytarilmaydi.

**MCHJ «KOLORPAK»
bosmaxonasi.**
100005, Toshkent shahri,
Elbek ko'chasi, 8- uy.

Mundarija

*Voqealar, dalillar,
raqamlar*
Bolalar uchun veb-
sayt yaratildi.....6



«Tajribamning sehrli
sirlari».....7

Mulohaza va taklif
O'z ustimizda muntazam
ishlaylik.....8



Metodik tavsiya
Geometrik shakllarni
o'rganamiz.....9

Tajriba
Extended family.....11

Mutaxassis minbari
Attestatsiya — o'qitish
sifatini oshirish vositasi.....12

Ota-onalar sahifasi
Bolada mutolaa ko'nikmasi
shakllansin.....15



Содержание

Ko'rgazmali qutol
Kelajakka yo'l.....16

Mulohaza uchun mavzu
Xotirani mustahkamlovchi
yondafar.....19

Metodicheskie rekomendatsii
Логическое мышление:
как его развить.....20

Актуально
Язык — символ
независимости.....22



Обсудим
В класс с русским
языком обучения —
осознанно?.....26



O'qituvchi uchun mas'ala
Tomchida hayot aksi.....28

O'qituvchi kitob javoniga
Yaxshi yordamchi.....29

Yoz ne'matlar
Ham foydali,
ham mazali.....32

Aql chaxxi
«O'zbekiston
sabzavotlari».....32



«TO'RT (4) TARAF» METODI
Metodning maqsadi:

- berilgan muammoni 4 tarafdin o'ylab ko'rib, muammo yuzasidan bilimlarni oshirish;
- olgan bilimlarni mustahkamlash;
- mavzuni ijodiy yo'l bilan o'zlashtirish va o'quvchilar ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish.

Bu metoddan foydalanish uchun kerakli vositalar: A-4 yoki A-3 formatdagi oq qog'oz va markerlar.

O'tilgan mavzu yoki biron-bir bo'lim tanlab olinadi va shu mavzu yoki bo'limni yorituvchi 3ta savol va 1ta amaliy topshiriq o'qituvchi tomonidan tuziladi (2ta savol va 2ta amaliy topshiriq ham bo'lishi mumkin). Oq qog'oz quyidagi shaklga keltiriladi.

Shundan so'ng markazdagi oval shakl ichiga tanlab olingan mavzu yoziladi. Atrofidagi 4ta katakda savol va topshiriq beriladi. Masalan, mavzu qismiga O'zbekiston deb yozamiz. 4ta katakka:

- poytaxti;
- viloyatlari;
- chegaradosh davlatlar;
- ramzlaridan birini

chizing.

Bunday shakldan «Mustaqillik darslari»ni tashkil etishda guruhlarda ishlashda foydalanish mumkin.

Yoki metod ishini «Men haqimda» mavzusi asosida tashkil etish mumkin. Bunda mashq individual ish shaklida, o'quvchilarning bir-birlari bilan yaqinroq tanishishlari va o'qituvchining o'quvchini yanada yaqinroq bilib olishi maqsadida qo'llaniladi. Bunda o'quvchi A-5 formatli qog'ozdagi 1- katakka o'zining ismi, 2- katakka

O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik sifatini yaxshilash, dars samaradorligini oshirishda interfaol usullardan foydalanish, zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish masalasi dolzarbdir. Bu borada Toshkent shahar XTXQTM Oida 2015—2016- yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, malaka oshirish jarayonida davlat talablari asosida belgilangan dastur bo'yicha mavzular tinglovchilarga turli innovatsion interfaol metodlardan foydalanish orqali yetkazilganda ma'ruza shaklida berilgan ma'lumotdan ko'ra innovatsion interfaol metodlar orqali berilgani tinglovchilar tomonidan ko'proq (73 foiz) qabul qilingani ma'lum bo'ldi.

Quyida boshlang'ich sinf o'qituvchilari kursi tinglovchilari bilan olib borilgan tajriba-sinov jarayonida qo'llanilgan innovatsion interfaol metod va uning didaktik imkoniyatlari tahlilini e'tiboringizga havola etamiz.



3ta ijobiy fazilati, 3- katakka orzu-istaklari (bu katakda o'quvchilar orzu-istaklarning rasmlarini chizishlari ham mumkin) va so'nggi 4- katakka 1ta kamchiligini (o'quvchi xohishiga ko'ra keltirilmasligi ham mumkin) yozadilar. So'ng sinfdoshlari bilan o'rtoqlashadilar. Ota-onalar majlisida esa, xuddi shu metoddan foydalangan holda «Men haqimda» emas, balki «Farzandim haqida» mavzusini qo'yib, savollar shunga mos tarzda o'zgartiriladi. Farzandimning ism-sharifi, uning 3ta ijobiy fazilati, uning orzulari va 1ta kamchiligi. Yuqoridagi ikkita jarayoni tashkil etgan o'qituvchi keyin ota-onalarga o'zlarining va farzandlarining javob varaqalarini solishtirish uchun berishi ham maqsadga muvofiq.

Shuningdek, tajriba davomida barcha fan o'qituvchilari singari boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham o'z



fanlariga doir mavzularni tanlab, guruhlarda, juftlikda va yakka tartibda ishlab, ushbu metoddan foydalanish jarayonini amaliy va nazariy tahlil qilishdi. Masalan, atrofimizdagi olam, o'qish, matematika, tabiatshunoslik va boshqa fanlardan namunalar keltirishimiz mumkin.

Bu metoddan darslarda o'tilgan mavzuni yanada mustahkamlash maqsadida foydalanish yuqori samara beradi.

Yuqorida aytilganidek, metoddan yakka tartibda, juftlikda, guruhlarda ishlashda foydalanish mumkin. Bu o'quvchilarda:

- biron-bir mavzuni yoki muammoni 4 tomonlama tahlil qilish ko'nikmasini;
- mavzuni yaxshiroq tushunishni;
- mavzuni tushuntirishda e'tibordan chetda qolgan ma'lumotlarni o'zlashtirishni;
- mavzu bo'yicha turli amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarishni;
- guruhlarda ishlash ko'nikmasini;
- keyingi mavzularni o'zlashtirayotganda e'tiborliroq bo'lish kabilarni rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarning interfaol metodlardan samarali hamda har bir dars mazmuniga muvofiq foydalana olish ko'nikmalarini puxta egallashlari har bir o'quv mashg'ulotining o'ziga xos (original), qiziqarli va samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

D. XIDOYATOVA,
 TSHXTXQTM OI Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti kafedrasida katta o'qituvchisi.

Urug'dan ko'paydigan o'simliklarga nimalar kiradi?

Uyningizdagi mavjud o'simliklarning nominal yozing.

Bahorda ekiladigan manzarali o'simliklarni yozing.

Ortiqchasini top.

Tabiatshunoslik fani, 2- sinf, III chorak

Bu ertakda qaysi qahramonlar ishtirok etgan?

Bu qahramonlarning qaysi xislatlari yoqadi?

Bo'ning qaysi ilati yoqmadi?

Sizga yoqq qahramonni rasmini chizing.

Tabiatshunoslik fani, 2- sinf, III chorak